



MAHMUD SHAKIR'S WORK "AT-TARIH AL-ISLAMI" EXPLAINS THE COME TO POWER OF THE UMAID DYNASTY

Turdimirzayev Jakhongir Abduqayum o'g'li

2nd year graduate student of the International Islamic Academy of
Uzbekistan

Call. (99) 0605175

E-mail: turdimirzayevjahongir@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2024

Accepted: 22th May 2024

Online: 23th May 2024

KEY WORDS

Umayyads, caliph, Muawiya
(r.a), Yazid, Qays ibn Sa'd,
Khorasan, Mowarunnahr,
monarchy.

ABSTRACT

In this article, in the fourth part of Mahmoud Shakir's work "at-Tarikh al-Islam", we can see the coverage of the Umayyad era directly. This part covers the history of the period from the Umayyad period of ignorance to the beginning of the Abbasid caliphate. In addition, the efforts of Muawiya (r.a.) to unite the people after coming to power were also revealed.

MAHMUD SHOKIRNING "AT-TARIX AL-ISLAMIY" ASARIDA UMAVIYLAR SULOLASINING HOKIMIYATGA KELISHINING YORITILISHI

Turdimirzayev Jahongir Abduqayum o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-kurs magistranti

Tel. (99) 0605175,

E-mail: turdimirzayevjahongir@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2024

Accepted: 22th May 2024

Online: 23th May 2024

KEY WORDS

Umaviylar, xalifa, Muoviya (r.a),
Yazid, Qays ibn Sa'd, Xuroson,
Movarounnahr, monarxiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Mahmud Shokirning "at-Tarix al-Islam" asarining to'rtinchi qismida bevosita Umaviylar davrining yoritilishini ko'rishimiz mumkin. Bu qism Umaviylarning johiliyat davridan to Abbosiylar xalifaligining boshlangunicha bo'lgan davr mobaynidagi tarixni qamrab olgan. Bundan tashqari Muoviya (r.a) ning hokimiyatga kelganidan keyin xalqni birlashtirish yo'lidagi harakatlari ham ochib berilgan.

Muallif asarining to'rtinchi qismi bevosita Umaviylar davriga bag'ishlangan. Bu qism muqaddima, sufyoniylar oilasi xalifaligi, Marvoniylar oilasi xalifaligi kabi katta boblarga ajratilgan. Undagi hukmdorlarning har biriga alohida bo'limlar ajratilib, u hukmdorning nasabi, aka-ukalari, opa-singillari, ayollari va farzandlari haqida ham ma'lumotlar berilib, keyin uning hukmdorlik davrlari yoritila boshlanadi. Bu qismda Umaviylarning johiliyat davridan to Abbosiylar xalifaligining boshlangunicha bo'lgan davr mobaynidagi tarixi bayon qilingan. Yana Rosululloh (s.a.v) davrlari va roshid xalifalar davridagi siyosiy boshqaruv ishlarda umaviylarning ro'li ko'rsatilgan. Har bir umaviy xalifa davri alohida bobda aks etgan [4, P. 5]. Yana bu kitobda Umaviylar va Marvoniylar hukmronligi orasida xalifalikni boshqargan



Abdulloh ibn Zubayr (r.a) ning boshqaruv davri berilgan. Chunki Yazid ibn Muoviya vafotidan so'ng xalifalikning aksar qismi Abdulloh ibn Zubayr (r.a) ning xalifaligini tan oladilar va U zot qarib 10 yil 683-692 yillarda Makkada xalifalik qiladilar. Bu asarda Umaviylar davrini yoritish bilan bir qatorda u davrda amalga oshirilgan harbiy yurishlar, xorijiy harakati, viloyatlar boshqaruv masalalariga ham alohida urg'u beriladi. Bu davrni o'rganib borsangiz bevosita Xuroson va Movarounnaxr haqida ham ko'p ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Sababi umaviylar 661-750 yillarda Yaqin va O'rta Sharq, Xuroson, Movarounnahr, Afrika va Ispaniyada hukm yuritganlar. Asarning yakunida Umaviylar davlati inqirozi, inqirozga olib borgan sabablar va bu davrdagi Abbosiylarning harakati yoritib o'tilgan. Asarda tushunarli bo'lishi uchun hukmdorlarning shajarasi chizmalar orqali ko'rsatilgan. Bu o'quvchiga o'qilayotgan ma'lumotni yanada teranroq anglashga ham yordam beradi. Bundan tashqari o'sha davr voqealari yoki hududlar xaritalarda ham o'z aksini topgan.

Umaviylar davlati xulfoi roshidinlardan Ali roziallohu anhunging hijriy 40-yil ramazon oyining 17-kuni o'ldirilganlaridan keyin asos solindi. Umaviylar davlatining boshlanishini Hasan ibn Ali roziallohu anhumoning hokimiyatlari qulatilgan va Muoviya ibn Abu Sufyon roziallohu anhumoning hokimiyatlari boshlangandan keyingi davrdan hisoblanadi. Bu hijriy 41-yil robiul avval oyining 25-kuniga to'g'ri keladi. Bu xalifalik to zubo ma'rakasi ya'ni, Abbosiylar bilan umaviylar o'rtasidagi urushgacha davom etdi. Bu jangda Umaviylar oxirgi xalifasi Marvon bin Muhammad mag'lub etiladi. Bu hodisa hijriy 132-yil jumodul avval oyining 11-sanasiga to'g'ri keladi. Shunday qilib bu sulola 91-yildan ortiqroq vaqt mobaynida hukmronlik qildi. Bu sulolani ikki oila vakillari ketma-ketlikda boshqarib hokimiyatda bo'lgan xalifalarning soni 12 tani tashkil etdi. Ular: Ikkinchi oila vakillari Marvoniylar bo'lib hokimiyatni 59 yil boshqardilar. Bu oiladan o'n xalifa bo'lib, ular ketma-ketlikda hokimiyatni boshqarganlar.

Bu sulola vakillari hijriy 73-132 yillar mobaynida hukmronlik qilishdi. Hijriy 64-yildan to 73-yilgacha ya'ni, 9 yil davomida Abdulloh ibn Zubayr (r.a) xalifa bo'lib Hijoz, Yaman, Iroq va Xuroson yurtlarini boshqardilar. Ulardan dastlabki oila vakillari sufyoniy bo'lib, ulardan ikki kishi xalifalikni boshqargan. Birinchisi Muoviya (r.a), hukmronlik yillari hijriy 41-60 yillar bo'lsa, ikkinchisi Yazid ibn Muoviya hukmronlik yillari hijriy 60-64 yillardir. Muoviya (r.a) ning farzandi Yaziddan so'ng hokimiyatga Muoviya ibn Yazid keladi, lekin musulmonlar uning atrofida jamlanmaydilar. Bay'atni Abdulloh ibn Zubayr (r.a)ga beradilar. Shundan so'ng Muoviya ibn Yazid bir necha oygina hokimiyatda bo'ladi va hokimiyatdan voz kechadi. Demak bu oila vakillari hijriy 41-yildan to 64-yilgacha hokimiyatni boshqardilar [1, P. 53].

Umaviylarning hokimiyat tepasiga kelishi o'zicha bo'lib qolgan emas. Avvalo ularning oilasi, Rosululloh sollolohu alayhi vasallam, xulfoi roshidinlar davrida siyosiy jihatdan ularni muhim ro'li haqida qisqacha fikr yuritsakda bu narsa oydinlashadi.

Umaviylar Umayya ibn Abdushshams ibn Abdumanof (taxminan VI asrda yashagan) ning avlodlaridir. Banu Hoshim (Rosululloh sollolohu alayhi vasallam va u zotning qarindoshlari) ning shajarasi bilan umaviylar aynan Abdumanofda tutashadi. Abdumanof avlodlari ko'p yillar davomida Makkaning sayyidlari bo'lib kelishgan. O'sha vaqtda hech kim ularga qarshi chiqmas, Quraysh qabilasi ularni o'zlariga rahbar deb bilib, itoat etardi [4, P. 7]. Abdumanofning avlodlari Banu Hoshim va Banu Umayya keyinchalik ham Makkadagi asosiy vazifalar ar-rifada (Makkaga kelgan hojilarga oziq-ovqat bilan ta'minlash. Bu ishni bajarish uchun Makka aholisidan soliq yig'ilgan), as-siqoya (Hojilarni suv bilan ta'minlash vazifasi), al-hijaba (Ka'bani nazorat qilish



vazifasi. Ka'ba eshigining kalitlari unda saqlanadi), al-liva (Bayroqdorlik vazifasi) va nadva (Quraysh qabilasi yig'ilish o'tkazadigan joy)dagi boshqaruvni o'zaro taqsimlab olishgan [4, P. 8]. Islom dini kelganda ham umaviylar va hoshimiylar o'rtasida keskin kelishmovchilik yuzaga kelmadi. Ular o'rtasida quda-andachilik aloqalari ham yo'lga qo'yiladi. Rosululloh sollollohu alayhi vasallam uch qizlarini umaviylar oilasiga turmushga beradilar. Yangi dinni ham umaviylarning aksar qismi boshqalar qatori qabul qildilar va boshqalar qatori Xabashiston va Madinaga hijrat ham qildilar. Ularning islom dinini qabul qilishlari Rosululloh sollollohu alayhi vasallamni juda sevintirdi va Makka fathida ularning barchalari islom dinini qabul qildilar. Rosululloh sollollohu alayhi vasallam boshliq musulmonlar Makka shahrini fath etganlarida kim Abu Sufyonning uyiga kirsam omonlik berishlari, uning qabila rahbarlaridan biri bo'lishiga ishora edi. Shu o'rinda Abu Sufyon (r.a) hayotlariga qarasa, Abu Sufyon Soxr ibn Harb ibn Umayya ibn Abdushshams ibn Abdumanof ibn Qusoy ibn Kilob bo'lib, dastlab Makka shahrida islom da'vati boshlangan vaqtda Qurayshning boshliqlaridan biri edi. Keyinchalik Badr g'azotida Makkaning bir qancha kattalari xalok bo'lganligi sababli u yerning sayyidiga aylanadi. Dastlab Abu Sufyon (r.a) islomga qarshi chiqadilar, Uhud g'azotida Makkaliklarga rahbarlik qiladi, Ahzob jangiga qabilalarni yig'adi, Handaq g'azotida qo'shinlarni boshlab boradi, Makka Fathi kuni islomni qabul qiladi va keyinchalik Rosululloh (s.a.v) bilan Hunayn va Toif g'azotlarida birga bo'ladi, o'lja taqsimotida 100 ta tuya 40 uqiya kumush o'lja oladi. Rosululloh (s.a.v) va Abu Baks Siddiq (r.a) u kishini Najron o'lkasiga boshqaruvchi sifatida yuboradilar. Yarmuk marakasida qahramonlarcha jang qiladilar va shu kuni ikkinchi ko'zlarini yo'qotadilar. Birinchi ko'zlarini Toif jangida ko'r qilgan edilar. Umrlarining qolgan qismida ibodatga berilib o'tkazadilar va hijriy 31-yil Usmon ibn Affon davrlarida olamdan o'tadilar [1, P. 60]. O'g'illari Muoviya (r.a) esa Rosululloh sollollohu alayhi vasallamga vahiy kotiblik qiladilar.

Xulosa qilganda, Rosululloh sollollohu alayhi vasallam olamdan o'tgan vaqtlarida umaviylar hokimlik va kotiblik vazifalarini bajarar edilar. U zot qurayshning biror urug'ini umaviylar kabi ko'p vazifaga tayinlamaganlar. Umaviylar Rosululloh sollollohu alayhi vasallam davrlarida ham roshid xalifalar davrlarida ham islom jamiyatining mustaxkam poydevorga ega bo'lishiga katta hissa qo'shganlar [4, P. 14].

Muoviya (r.a) ning hayotlari haqida qisqacha fikr yuritadigan bo'lsak, U zot hijratdan 15 yil oldin tug'ilgan. U zot baland bo'yli, oq tanli, chiroyli va haybatli odam edi. Umar (r.a) uni ko'rganda "bu arablarning kisrosi der edi" [2, P. 166].

Ali (r.a) Muoviyaning hokimiyatini yomon ko'rmang. Agar undan ajralsangiz yelkalaridan kallalarni uchishini korasiz deganlar [2, P. 166].

Maqbariy shunday deydi: sizlar Muoviya (r.a)ni esdan chiqarib Hirakl va Kisrolarni zakovatiga qoyil qolib, tahsin aytyapsiz! Uning muloyimligi zarbulmasal bo'lib ketgan. Ibn Abuddunyo va Abu Bakr ibn Osimlar Muoviya (r.a)ning muloyimligi haqida kaitob ham yozganlar [2, P. 167].

Ka'bul Axbor bu ummatga hech kim Muoviyadek podshoh bo'la olaydi degan [2, P. 167].

Otalari Abu Sufyon, onalari Hint binti Utba bo'ladi. Hudaybiya yili islomni qabul qiladilar. Islomga kirganlarini otalari Abu Sufyondan yashiradilar, lekin Abu Sufyon buni sezardi va sendan o'g'lim Yazid yaxshiroq derdi. Makka fathida U zotning islomdaligi hammaga zohir bo'ladi. Rosululloh sollollohu alayhi vasallam bilan Hunayn, Toif g'azotida bo'ladilar va o'ljadan



100 ta tuya 40 uqiya oltin oladilar. Rosululloh sollallohu alayhi vasallamdan 163 ta hadis rivoyat qiladilar. U zot Muoviya (r.a) dan rozi bo'lgan holda olamdan o'tadilar [1, P. 68-69].

Muoviya (r.a) hijriy 41-yilda (milodiy 661) yilda qonuniy xalifa sifatida ish boshladi [3, P. 15]. To hijriy 60 yil rajab oyida vafotigacha davom etadi. shu tariqa Muoviya (r.a)ning xalifaligi taxminan o'n to'qqiz yil-u uch oydan oshadi. Xalifalikdan oldin u amir sifatida tanilgan edi [1, P. 75].

Bu xalifalik musulmonlar uchun yaxshi bo'ldi, chunki tartibsizlik va janglar davri tugab, dushmanlar o'zlari tashlab ketgan yerlarini qaytarib olishga intilishlariga barham berildi. Musulmonlar o'z kuchlarini yana to'plab xorijga yo'naltirdilar va yana jihod qaytib, fathlar ro'y bo'ldi. Ayniqsa, rimliklar yo'qotgan joylariga qaytishga umid qilishgan, lekin bu narsaga chek qo'yildi [1, P. 75].

Muoviya (r.a) Qays ibn Sa'dga odam yuborib, unga tagida muhr bosilgan xat yubordi va u: «Bu daftarga xohlaganingizni yoz va anashu seniki», dedi. Amr ibn Os Muoviyaga: “Unga buni berma, u bilan jang qil!” dedi, lekin Muoviya (r.a) o'z so'zlarida turib oldilar. Qays unda o'zi va u bilan bo'lganlarga omonlik so'radi.

Shunday qilib, Muoviya (r.a) davrida unga hech qanday raqib qolmadi, hamma unga itoat qildi va jangchilar safiga qo'shildi, shuning uchun fathlar o'zining ilk davrlariga qaytdi va sahobalar: Uboda ibn Somit, Abu Ayyub Ansoriy, Abdulloh ibn Zubayr va Abdulloh bin Abbas, Abdulloh ibn Umar, Abdulloh ibn Amr, Shaddod ibn Avs (r.a) va boshqalar qo'shinning oldingi safida bo'lib janglarda qatnashdilar. Garchi alohida fikrga ega bo'lgan ba'zi kishilar bo'lsada, ularning soni oz edi [1, P. 76].

Muoviya (r.a) Usmon ibn Affonni o'ldirga fitnachilarni jazolamadi. Kufa va Basra viloyatlarida joylashgan bu guruh vakillari o'z viloyatlarida boshqaruv zaiflashsa, turli fitnalar chiqarishar, qattiqqo'l boshqaruv ostida jim yurishar edi. Shuning uchun bu ikki mintaqa voliylari qattiqqo'llik bilan ish yuritishga harakat qildilar. Muoviya (r.a) davrlarida siyosiy barqarorlik va ijtimoiy totuvlikka erishildi [4, P. 73].

Ibn Abi Shayba “Musannaf” da, Tabaroniy “al-Kabir” da Abdulmalik ibn Umayrdan rivoyat qilinadi: “Muoviya dedi: “Rosululloh sollallohu alayhi vasallam menga: “Ey Muoviya, podshoh bo'lganingda yaxshi bo'l, deganlaridan beri xalifa bo'lishni orzu qilib kelaman” [2, P. 166]. Muoviya (r.a) xalifaliklaridan keyin vaziyat o'zgardi. Shu vaqtgacha xalifalarni xalq tomonidan saylanyapgan bo'lsa, bunday buyog'iga otadan farzandga meros tarzda o'tadigan, ya'ni monarxiya bo'ldi. Chunki Muoviya (r.a) o'zlaridan keyin xalifalikka o'g'illari Yazidni qoldiradilar.

References:

1. Mahmud Shokir. At-tarix al-islam. – Bayrut. Maktaba al islamiy, 2000. – J. IV. – B, 60.
2. Jaloliddin Suyutiy. Tarix al-xulafo (Abdulloh Shokirov tarjimas). T.: Sharq, 2020. – B. 166.
3. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. T.: Hilol-Nashr, 2017. J. II. – B. 15.
4. Ummataliyev S. Islom tarixidan oltin sahifalar. T.: O'qituvchi, 2021. – B. 5.